

TARJIMONNING MA'SULIYATI VA AXLOQIY ME'YORLARI

Hamraqulova Dilrabo Orziqul qizi

Student of Uzbekistan State World Languages University. Faculty of Translation. Tashkent.

Email: dil17082006@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14684824>

Annotatsiya. Tarjimonlik madaniyatlar, tillar va xalqlar o'rta sidagi aloqalar ni mustahkamlovchi asosiy vosita sifatida qaraladi. Ushbu kasbda to'g'rilik va aniqlikni saqlash, madaniy moslikni ta'minlash, hassos mavzular bilan ishlashda ehtiyojkorlik qilish hamda konfidentsiallikni saqlash kabi mas'uliyatlar muhim ahamiyatga ega ekani qayd etilgan. Shuningdek, halollik, xolislik, professionalizm va madaniyatga hurmat kabi axloqiy me'yorlarga rioya qilish zarurati ko'rsatilgan. Maqolada tarjimonning nafaqat so'zlarni tarjima qilishi, balki ular orqali hissiyot va madaniyatni aniq va mos ravishda yetkazishi lozimligi ta'kidlanadi. Tarjima jarayonida ijodiy yondashuv va moslashuvchanlik kabi qobiliyatlar muhim o'r'in tutadi. Maqola tarjimonning yuksak mas'uliyat bilan ishlashi, axloqiy me'yorlarga rioya qilishi hamda madaniyatlar o'rta sida muvaffaqiyatli ko'priq qurishga xizmat qilishi lozimligini yoritadi.

Kalit so'zlar: tarjimonlik, kasb mas'uliyati, axloqiy me'yorlar, to'g'rilik, aniqlik, madaniy moslik, konfidentsiallik, professionalizm, halollik, xolislik, madaniyatga hurmat, madaniyatlararo aloqa, tarjima jarayoni, ijodiy yondashuv.

ОБЯЗАННОСТИ И ЭТИЧЕСКИЕ СТАНДАРТЫ ПЕРЕВОДЧИКА

Аннотация. Перевод рассматривается как важный инструмент укрепления связей между культурами, языками и народами. Отмечено, что ключевыми обязанностями переводчика являются сохранение точности и правильности перевода, обеспечение культурной адаптации, осторожность при работе с деликатными темами и соблюдение конфиденциальности. Также подчеркивается необходимость соблюдения этических норм, таких как честность, объективность, профессионализм и уважение к культуре. Указывается, что переводчик должен не просто передавать слова, но и точно и адекватно транслировать через них эмоции и культурные особенности. В процессе перевода важную роль играют творческий подход и гибкость. В статье акцентируется внимание на том, что переводчик должен работать с высокой степенью ответственности, соблюдать этические нормы и служить эффективным мостом между культурами.

Ключевые слова: перевод, профессиональная ответственность, этические нормы, точность, правильность, культурная адаптация, конфиденциальность, профессионализм,

честность, объективность, уважение к культуре, межкультурное общение, процесс перевода, творческий подход.

RESPONSIBILITIES AND ETHICAL STANDARDS OF A TRANSLATOR

Abstract. Translation is highlighted as a crucial tool for strengthening connections between cultures, languages, and nations. Key responsibilities of a translator include maintaining accuracy and precision, ensuring cultural compatibility, exercising caution when handling sensitive topics, and upholding confidentiality. The importance of adhering to ethical principles such as honesty, impartiality, professionalism, and respect for culture is emphasized. The article underscores that a translator is not merely a conveyor of words but a mediator of emotions and cultural nuances. Creativity and adaptability are identified as essential qualities in the translation process. The article concludes that translators must work with a high sense of responsibility, adhere to ethical standards, and effectively serve as bridges between cultures.

Keywords: translation, professional responsibility, ethical standards, accuracy, precision, cultural compatibility, confidentiality, professionalism, honesty, impartiality, respect for culture, intercultural communication, translation process, creativity.

Kirish

Tarjimonlar turli xalqlarni birlashtirishda, ma'lumotlarni yetkazishda va insoniyat merosini saqlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu sababli, tarjimonlik kasbi yuqori mas'uliyat va axloqiy me'yorlarga qat'iy rioxalari qilishni talab qiladi. Kasbiy andozalar va odob-axloqiy qadriyatlar asoslangan kasbiy faoliyatni amalga oshirishda tarjimonlik hamjamiyati a'zolari faoliyatining me'yor va tartiblarini belgilaydi. Odob tamoyillariga rioxalari qilmaslik qoidabuzarlarga axloqiy tanbeh berish uchun asos bo'lilishi mumkin.

Tarjimonning mas'uliyati

1. To'g'rilik va aniqlik

Tarjimonning birinchi va eng muhim vazifasi matn mazmunini to'g'ri va aniq yetkazishdir.

Har bir so'z yoki ibora o'ziga xos ma'no yuklaydi, va bu ma'no noto'g'ri talqin qilinsa, matnni umumiylashtirish zarar yetishi mumkin. Masalan, yuridik yoki tibbiy matnlarda birgina noto'g'ri tarjima odamlarning hayotiga tahdid solishi mumkin. Shu sababli tarjimon matnni original ma'nosini saqlagan holda, noaniqliklardan xoli tarzda yetkazishi lozim.

2. Madaniy moslikni ta'minlash

Har bir madaniyat o‘ziga xos urf-odatlar, qadriyatlar va dunyoqarashga ega. Tarjimonlar turli madaniyatlar o‘rtasida muvozanatni saqlash orqali moslikni ta’minlashlari zarur. Misol uchun, bir madaniyatda maqbul bo‘lgan tushunchalar yoki so’zlar boshqa madaniyatda tushunarsiz yoki salbiy bo‘lishi mumkin. Tarjimon bunday holatlarda so‘zning yoki iboraning ekvivalentini topib, kontekstga moslashtirishi kerak.

3. Ba`zi mavzular bilan ishlashda ehtiyojkorlik

Diniy, siyosiy yoki madaniy jihatdan sezgir bo‘lgan mavzularni tarjima qilish murakkab yondashuvni talab qiladi. Tarjimon bu mavzularda o‘ta ehtiyojkorlik bilan ishlashi, auditorianing hissiyotlari va qadriyatlariga hurmat bilan yondashishi kerak. Bunday hollarda neytral va xolis bo‘lish zarurdir.

4. Konfidentsiallikni saqlash

Tarjimonlik jarayonida mijozning sirlarini saqlash axloqiy va kasbiy majburiyati hisoblanadi. Bu ayniqsa yuridik, tibbiy va tijorat sohalarida dolzarbdir. Tarjimon o‘z mijozining ishonchini oqlash uchun maxfiy ma’lumotlarni oshkor qilmasligi va bu masalaga katta mas’uliyat bilan ish boshlashi kerak.

Axloqiy me'yorlar

Axloqiy tarjima —bu nafaqat matnni to‘g‘ri tarjima qilish, balki bu jarayonda madaniy, axloqiy va ma’naviy jihatlarni hisobga olishdir. Tarjimon faqatgina tilni emas, balki matnning mazmuni va kontekstini ham to‘g‘ri o‘tkazishi lozim. Ayniqsa, muqaddas matnlar yoki ma’naviy ahamiyatga ega bo‘lgan matnlarni tarjima qilishda, tarjimonning axloqiy va ma’naviy javobgarligi oshadi. Bu jarayonda tarjimon nafaqat tilga oid bo‘lgan aniq ma’noni saqlab qolishi kerak, balki manba matnning ma’naviy mazmunini ham to‘g‘ri o‘tkazishi zarur. Masalan, diniy matnlarning tarjimasida nozik axloqiy masalalar ko‘ndalang kelishi mumkin, bu esa tarjimonning chuqur mulohaza yuritishi va javobgarlikni his qilishini talab qiladi. Diniy va muqaddas matnlar tarjimasida eng asosiy axloqiy masala-matnning ilohiy yoki muqaddas ma’nosini o‘zgartirmasdan o‘tkazishdir.

Shuningdek tarjimonda quyidagi axloqiy me'yorlar bo‘lishi zarur

1. Halollik va xolislik

Tarjimon har qanday shaxsiy fikr yoki tarafkashlikdan holi bo‘lishi kerak. Uning vazifasi original matn mazmunini imkon qadar xolisona va manipulyatsiyasiz yetkazishdir. Ayniqsa ilmiy, huquqiy yoki siyosiy matnlarni tarjima qilishda xolislik va halollik tarjimonning professional obro’sini oshiradi.

2. Professionalizm

Tarjimon o‘z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi va murakkab terminologiyalarni tushunish uchun izlanish qilishi kerak. Bundan tashqari, tarjimon o‘z sohasida yetarli bilimga ega bo‘lishi va yuqori sifatli ishni taqdim etishga intilishi lozim. Zarur bo‘lganda, mutaxassislar bilan maslahatlashish yoki qo‘srimcha manbalardan foydalanish professionalizmning ajralmas qismidir.

3. Til va madaniyatga hurmat

Har bir til o‘ziga xos bo‘lgan madaniy kontekst va qiymatlarni ifodalaydi. Tarjimon ushbu madaniyatga nisbatan hurmat bilan yondashishi va matnning asl mohiyatini buzmasdan yetkazishga intilishi kerak. Noto‘g‘ri tarjima boshqa madaniyatga nisbatan hurnatsizlik sifatida qabul qilinishi mumkin.

4. Ijodiy yondashuv va moslashuvchanlik

Ba’zida so‘z yoki iboralar bir tilning madaniy kontekstiga mos kelmasligi mumkin. Bunday vaziyatlarda tarjimon ijodiy yondashuvni qo‘llab, matnning ma’nosini saqlab qolish uchun alternativ usullarni topishi kerak. Ijodiy yondashuv tarjimonning tajribasi va bilim darajasini oshiradi.

Xulosa

Tarjimonlik nafaqat til bilimini, balki yuqori mas’uliyatni, axloqiy me’yorlarga rioya qilishni va ijodiy yondashuvni talab qiladigan murakkab kasbdir. Har bir tarjimon o‘z ishida mas’uliyatli bo‘lishi, mijozlar va auditoriyaga hurmat bilan yondashishi hamda o‘z kasbiy malakasini muntazam ravishda oshirib borishi kerak. Axloqiy me’yorlarga qat’iy rioya qilish tarjimonning ishonchli va hurmatga sazovor hamkor sifatida obro’sini oshiradi.

Tarjimon madaniyatlararo aloqalarni mustahkamlash orqali dunyo xalqlarini birlashtiruvchi ko‘prik vazifasini muvaffaqiyatli bajara oladi.

Tarjimonlik so‘zlardan tashqaridagi ma’nolarni, hissiyotlarni va madaniy boyliklarni yetkazuvchi san’atdir. Tarjimonlar dunyonи birlashtiruvchi asosiy vositachilardan biri sifatida katta hurmat va e’tirofga loyiqdirlar.

REFERENCES

1. Pedagoglar .org
2. Academia.edu
3. Translation- Ethics.Ru